

**ABU ALI IBN SINONING FARMATSEVTIKA SOHASIGA OID BAYON  
ETGAN MA'LUMOTLAR TAVSIFI**

*Pardaboyeva S.A., Sirocheva Sh.M., Quranboeva M.D., Shermatova I.B.*

**Annotatsiya.** Dunyoda juda ko'plab kasalliklar rivojlanib bormoqda, shu bilan birga ushbu kasalliklarga qarshi yangi dorilar ishlab chiqilmoqda. Yaratilayotgan dorilarning ko'pi dorivor o'simliklardan tayyorlanmoqda. Nega aynan shifobaxsh o'simliklar asosida olinmoqda? Chunki bizdan oldin yashab o'tgan Ibn Sino bobomiz ko'pgina o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlarini o'rganib, bizga bir qancha ma'lumotlar yozib qoldirgan. Aynan shu manbalarga asoslanib, ayni damda o'simliklardan dorilar tayyorlash texnologiyasi rivojlanib kelmoqda. Ushbu maqolada ham biz dunyo va o'zbek olimlarining Ibn Sino tabobati bo'yicha bir qancha fikrlarni ko'rib chiqamiz.

**Kalit so'zlar.** Abu Ali Ibn Sino, "Tib qonunlari", dori-vositalari, risolalar.

**Kirish.** Abu Ali ibn Sino (to'liq ismi: Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn Sino al-Balxiy; arabcha: *سينا بن عبدالله بن الحسين علي أبو*) — o'rta osiyolik qomusiy olim [1] olimi, tabib va faylasuf deb yuritilgan. 980-yilning 18-iyunida Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan va 1037-yilning 16-avgustida Hamadonda vafot etgan. G'arbda Avitsenna (ingl. Avicenna) nomi bilan mashhur. Ibn Sinoning tib ilmida yuksak mahoratga erishishida Buxorolik boshqa bir tabib Abu Mansur al Hasan ibn Nuh al Qumriyning xizmati katta bo'ldi. Ibn Sino undan tabobat darenini olib, bu ilmning ko'p sirlarini o'rgangan. Ibn Sino tabiblik bilan birga umrini turli tibbiyotga doir asarlar yozish bilan o'tkazdi. Uning 280 dan ortiq asarlari bo'lib ulardan 40 tasi tabobat ilmiga bag'ishlangan. Ibn Sino o'zining farmatsevtika masalalariga oid fikrlarini buyuk asari bo'lmish "Tib qonunlari" ning ayrim kitoblarida bayon etgan. Ibn Sinoning tibbiyot asarlaridan eng muhimi "Tib qonunlari" bo'lib, asar beshta mustaqil kitoblardan iborat. Kitoblarning ikkinchi va beshinchisida dorishunoslikka oid ma'lumotlar yozilgan. Xususan, ikkinchi kitobda 700 dan ortiq dori vositalariga ta'rif berilgan, ularning tayyorlash va qo'llash usullari ko'rsatilgan. Beshinchi kitobida esa 275 ta murakkab dorilar bayon etgan. Bulardan tashqari yana 64 ta yurak kasalliklarida ishlatiladigan dorilarni ko'rsatgan. Ibn Sino bayon etgan murakkab dorilarning soni 400 dan oshadi. Shu bilan birga, olim tomonidan kimyoviy moddalar margumush, mis, oltingugurt, kumush va ularning birikmalaridan foydalanish ilk bor tibbiyotda foydalanilgan. Beshinchi kitobda esa unda murakkab dorilarni tayyorlash usuli, tanaga ta'siri va is'temol qilish usullari berilgan. Abu Ali ibn Sino bemorlarning davolashda dorilarning qo'llash usullari hozirda ham saqlanib qolmaygina hattoki an'anaviy usullar hisoblanadi. Ibn Sino sahrodan yig'ilgan dorilarning hammasi

bog'lardan yig'ilganga qaraganda kuchliroq, ko'pincha hajmi kichikroq bo'ladi. Tog'toshloqlarda terilgan – undanda kuchliroq deb ta'riflanadi [2].

Bemorlarni davolashda olim 3 narsaga — tartib (parhez), dorilar bilan davolash va turli tibbiy tadbirlarni qo'llash (qon olish, banka qo'yish, zuluk solish, huqna va hokazo) ga ahamiyat berish kerakligini aytadi. Kasallikni davolashda ovqatlanish, ya'ni parhezni muhim omillardan deb hisoblaydi va har bir kasallik uchun o'z ovqatlanish tartibini beradi. Chunonchi, jigar kasalliklarida ko'proq mayiz, anjir, anor suvi iste'mol qilishni buyuradi. Bu esa bunday kasalliklarni hozirgi glyukoza va insulin bilan davolash usullarining qadimgi ko'rinishidir.

“Dori vositalari” («Al-Adviyat al kalbiya») —Xamadonga birinchi borishi vaqtida yozgan. Mazkur asarda pnevma hosil bo'lganda va namoyon bo'lganda yurak faoliyati, xususan, yurak kasalligi va davosi haqida batafsil yoritib berilgan. Ibn Sino o'z asarlarida jismoniy mashqlarining sog'lomlashtiruvchi va davolovchi tajribadagi o'rni va roli haqida yozadi. Jismoniy mashqlarga to'xtovsiz, chuqur nafas olishga olib keluvchi erkin harakatlar, deya ta'rif bergan. Agar inson mo'tadil va o'z vaqtida jismoniy mashqlar bilan shug'ullansa va tartibga rioya qilsa, u davoga ham, dorilarga ham muhtoj bo'lmaydi, deya tasdiqlagan. Mashqlarni to'xtatar ekan, u so'nadi. Jismoniy mashqlar mushaklarni, bo'g'imlarni, asabni mustahkam qiladi. Shuningdek, u mashqlarni bajarishda yoshni ham inobatga olishni maslahat bergan. Uqalash, sovuq va issiq suvda chiniqish kabi muolajalarda to'xtalgan [3].

O'zining shifokorlik faoliyatida Ibn Sino dorivor vositalarni to'g'ri kasal a'zoga (nishon a'zoga) yetkazib berish bilan shug'ullangan. Buning uchun u o'zining murakkab dorilariga boshqa oddiy dorilarni qo'shib, kerakli dorini organizm ichkarisiga o'tkazish usulidan foydalangan. Bu to'g'risida Ibn Sino shunday yozgan: “Ba'zan dorilar boshqa dorilarni o'tkazish va yetaklash maqsadida qo'shiladi. Masalan, qizilgul, kofur va (dengiz) marjonining (ta'sirini) yurakka yetkazish uchun ularga za'faron qo'shiladi” (“Tib qonunlari” II kitob, 39-bet).

“Goho biz dori o'tish yo'llarida juda darajada ta'sir ko'rsatish uchun, uning biroz ushlanib turishini istaymiz, biroq dori singib o'tadigan bo'ladi, shunda uni tutib turuvchi (dori) bilan aralashiramiz. Masalan, (tiqilmalarni) ochuvchi dorilarning ko'pi jigardan tez o'tib ketadigan bo'ladi, ko'pincha esa ularning jigarda ushlanib turishlari juda zarur bo'ladi, shunday hollarda jigarni qarshi tomoniga itaruvchi dorilar bilan aralashiramiz: masalan, turp urug'i dorini me'da og'zi tomon itaradi, natijada dorining foydasi jigarga o'tganiga qadar u go'yo taraddudlanib (to'xtatib turadi), so'ngra o'tib ketadi (“Tib konunlari” 11-bet). Demak, dorilar kerakli a'zolari ma'lum joylardan sekin o'tish yoki ehtimoli biroz to'xtab turishi uchun asosiy dorilarga Ibn Sino chalg'ituvchi vositalar qo'shgan va shu bilan u yangi boshqacha ta'sir ko'rsatuvchi murakkab dori yaratgan [4].

Ibn Sinoning eng sevimli shogirdlaridan biri hisoblangan Abu Ubayd Juzjoniyning yozishicha, Ibn Sino jismonan baquvvat bo'lsada, shaharma-shahar yurishi, kecha-kunduz tinim bilmay ishlashi va bir necha bor ta'qib qilinishi, hatto hibsdan yotishi olimning salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan edi. Oqibatda qulanj (kolit) kasalligiga chalingan'', deya ma'lumotlar bergan. Isfahon hokimi Alouddavlaning Hamadonga harbiy yurishi vaqtida Ibn Sino qattiq betobligiga qaramay, u bilan birga safarga chiqadi. Yo'lda ahvoli yomonlashib, 1037-yilda Hamadonda 57 yoshida vafot etadi [5].

Zamondoshlari Ibn Sinoni "Shayx ar-ra'is" ("donishmandlar sardori, allomalar boshlig'i"); "Sharaf almulk" ("o'lka, mamlakatning obro'si, sharafi"), "hujjat al-haqq" ("rostlikka dalil"); "Hakim al-vazir" ("donishmand, tadbirkor vazir") deb ataganlar. Jahon tarixida Ibn Sino qomusiy olim sifatida tan olingan, chunki u o'z davridagi mavjud barcha fanlarning qariyb barchasi bilan shug'ullangan va ularga oid asarlar yozgan. Olim asarlarini o'sha davrda Yaqin va O'rta Sharqning ilmiy tili bo'lgan arab tilida, ba'zilar (she'riy va ayrim falsafiy asarlari) ni fors tilida yozgan. Turli manbalar uning 450 dan ortiq asar yozganligini qayd qilgan, lekin bizgacha ularning bizgacha 242 (160) tasi yetib kelgan. Shulardan 80 tasi falsafaga, 43 tasi tabobatga oid bo'lib, qolganlari mantiq, psixologiya, tibbiyot, astronomiya, matematika, musiqa, kimyo, axloq, adabiyot va tilshunoslikka bag'ishlangan. Lekin bu asarlarning hammasi ham olimlar tomonidan bir xilda o'rganilgan emas. Ibn Sinoning ko'proq falsafa va tibga oid kitoblari jahonning ko'pgina tillariga tarjima etilib, asrlar davomida qayta-qayta nashr qilib kelinmoqda, lekin shu bilan bir vaqtda, boshqa ko'p asarlari hali qo'lyozma holida o'z tadqiqotchilarini kutayapti [6].

Ibn Sinoning "Qonun" asari dunyoning mashhur olimlari tomonidan ham tan olingan. Jumladan, Jon Xopkins kasalxonasining asoschi, professorlaridan biri ser Uilyam Osler ushbu asarni hozirgacha yozilgan eng mashhur tibbiy darslik deb e'lon qilgan. Bir zamonaviy tarixchi uni "osmon bo'ylab miltillagan, butun dunyoni o'zining yorqinligi bilan yoritadigan va biz hali ham uning nurida atrofimizdagi dunyoni idrok etuvchi meteoritimiz" deb ta'riflagan [7].

Olim o'zining "Qushlar haqida risola" amegoriyasida "Osmondan baxt qidirish be'manilikdir. Baxt o'z do'stlaring yoningda yashagan ya'ni sen har kuni ko'rishib turadigan, birga ishlaydigan va o'z vaqtingni xushchahchaq o'tkazadigan do'stlarning birga yashaydigan joyidir", - deb ta'kidlaydi. Ibn Sino huquqsizlik va adolatsizlik hukm surgan pul, boylik insonning aqli va qadr qimmatini yerga urilgan jamiyatdagi hukmron ahloqqa obyektiv baho berdi. Ana shularning hammasini u podshoh Mahmud G'aznaviyning tazyiqlari ostida bir shahardan ikkinchi shaharga, bir mamlakatdan boshqasiga qochib yurishga majbur bo'lgan chog'larida boshidan kechirgan edi. Ammo mutafakkir nima sababdan bir xil kishilar mo'l-ko'lchilikda, zebi-ziynat ichida, shu dunyoning baxt saodatidan lazzat olib yashashlari-yu, aksar ko'pchilik esa



qashshoqlik va huquqsizlikda yashayotganligining asl sabablarini tushuna olmadi. Baxt, Ibn Sino nazarida avvalo shaxsning intellektual kamolotini o'z ichiga oladi. Faylasuf baxtning nisbiy harakterini ta'kidladi, chunki real dunyo sharoitida absolyut baxt bo'lishi mumkin emas, deb ta'kidladi. Sinoning baxt kategoriyasi haqidagi ta'limotida ikkinchi qarama-qarshi jihat shundan iboratki, u har xolda u dunyoda erishiladigan baxtni eng mukammal va yuksak baxt deb tan oladi. "Kimki o'z ruhi uchun bu ruh tanadan ayrilgandan keyin hosil bo'ladigan baxtiyorlik xolatini qidirsan,-deb yozgan edi u, shu kishi baxtli kishidir". Bu baxt uning fikriga ko'ra, faqat samoviy lazzatgagina taalluqli bo'lishi mumkin, u rohat-lazzatning yuksak darajada namoyon bo'lishidir. Mutafakkirning bu xildagi qarashlari o'sha zaminning an'anaviy qarashlarini faqat qadrlashgina emas, balki bizning nazarimizda, uning bir qadar murakkab shaxsiy hayotning oqibati hamdir. Shunday paytlar ham bo'lganki bunday paytlarda u qiyinchiliklar oldida ikkilanib, to'g'ri yo'lni topa olmasdan, umidsizlikka tushib qolgan. "Ox qani edi men o'zim kimligimni balsam edim, - deydi u o'z sherlaridan birida, -agar baxtli bo'lishimni bilsam edim, dunyoda darbadar bo'lib yurish menga ne darkor, tinch-xotirjam yashayverardim. Mobodo bunday bo'lmaschi, fig'on qilib, ko'z yoshlarim to'karmidim" degan. [8].

Ibn Sinoning yana bir qancha falsafiy gaplari ham mavjud. Shu bilan birga insondagi ba'zi xislatlarni tanqid qiladi. Jumladan, Ibn Sino arzimagan kasallikka bardosh bera olmaslik, yengiltaklik, birovning mehnati evaziga topilganlarni o'zlashtirib olish, kekkayish kabi xislatlarni qoralaydi, ularni yomon odatlar qatoriga kiritadi. U kishidagi qiziqqonlik ham kishining or-nomusini yerga uradigan xatti-harakatlardandir deb hisoblaydi. Ibn Sino yozadi: "Insonlarning doimiy tobe bo'lib yashashlari, boshqalar tomonidan o'z nafsini masxara qilishiga chidash, jabr-zulmga toqat qilish, yetishmovchilik kabilar kishini keyinchalik qiziqqon bo'lishiga sabab bo'ladi". Abu Ali Ibn Sino asarlarida kamolotga erishishning birinchi mezonima'rifatni egallashga da'vat etadi. Chunki ilm-fan insonga xizmat qilib, tabiat qonunlarini ochib avlodlarga yetkazishi kerak. Bu maqsadga yetishish uchun inson qiyinchiliklardan qo'rqmasligi zarur, deydi u: Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yetuk bo'lmagan kishilar qatoriga qo'shadi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini ta'kidlaydi [9].

**Xulosa:** Biz o'tmishimizdagi olimlar hayotini o'rganar ekanmiz, ularning asarlari va qoldirgan merosi orqali zamonaviy ta'limot yaratilayotganini guvohi bo'lamiz. Shunday ekan yosh avlodga bu bilimlarni yetkazib berish juda muhimdir. Zamonaviy farmatsevtika sohasini yanada rivojlantirish uchun ham aynan Ibn Sinoning qo'lyozmalariga tayanib ish ko'rish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., 2003. 9-bet

2. G. F. Sherqo`zieva, Kh. B. Karimov. Abu Ali Ibn Sinoning dorishunoslikka qo`shgan xissasi. <https://tma.uz/> Republican Scientific and Practical Conference
3. Bekchonova Z. M. ABU ALI IBN SINONING TIBBIYOT SOHASIDAGI XIZMATLARI VA ZAMONAVIY TIBBIYOT //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 329-333.
4. “Abu Ali Ibn Sino va zamonaviy farmatsevtikada innovatsiyalar” III Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to‘plami
5. Abu Ali Ibn Sino. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O‘zbekistondagi Islom svilizatsiyasi markazi tomonidan nashr qilingan IBXITM-2022. B. 16
6. Ismailovana X. N. IBN Sino Hayotiga BIR Nazar //AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 537-543.
7. Khan M. A., Raza F., Khan I. A. IBN SINA (AVICENA) I KORIJENI SEDAM DOKTRINA ODRŽAVANJA ZDRAVLJA //Acta medico-historica Adriatica: AMHA. – 2015. – T. 13. – №. Supplement 2. – C. 87-102.
8. Halimbetov Y. M., Yuldashev S. J., Jalilova D. M. ABU ALI IBN SINO VA UNING TA'LIMOTI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 403-405.
9. Jurayev S. S. U. Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida axloq masalasi va uning bugungi kundagi ahamiyati //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 3. – C. 11-14.